

LEKSIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK
TILIGA O'GIRISHDA TARJIMA USULLARI (MARTIN MIDOUS
"INTIZOMLI 365 KUN?" ASARI ASOSIDA)

Sevinch Akbarovna Abdullayeva

Termiz davlat universiteti talabasi

sabdullaeva185@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksemalarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi va Martin Midousning "Intizomli 365" asarining mohiyati o'quvchining lingvistik tushunchasiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Maqolada tarjimon ularni o'zbek tiliga tarjima qilishdan oldin leksikologik va grammatik tahlil uchun shablonlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: leksemalar, gramatik leksikologik, semantik transformatsiya, ingliz-o'zbek tarjima

TRANSLATION WAYS LEXICAL UNITS FROM ENGLISH
INTO UZBEK (ON THE EXAMPLE OF 365 DAYS WITH
SELF-DISCIPLINE BY MARTIN MIDOUS)

Abstract: This article analyzes the translation of lexemes from English into Uzbek and the essence of Martin Meadows's "365 day with self-discipline" taking into account the factors influencing the linguistic understanding of the reader. The article suggests templates for lexicological and grammatical analysis before the translator translates them into Uzbek.

Keywords: lexemes, grammatical, lexicological, semantic transformation, English-Uzbek translation

KIRISH

Transformatsiya lingvistikada tarjima jarayonida bir tilning tuzilishlarini boshqa tilning tuzilishlariga moslashtirishni anglatadi. Bu jarayonda matnning lug'aviy, grammatik yoki uslubiy jihatlari yangi tilning qonun-qoidalariga moslashtiriladi. Transformatsiya, ayniqsa, strukturasi va qoidalari bir-biridan sezilarli farq qiladigan tillar o'rtasidagi tarjimada muhim o'rin tutadi. Transformatsiyaning ahamiyati:

Bu usul tarjima sifatini oshiradi, matnning asl mazmuni va uslubini saqlashga yordam beradi. Bir tilning grammatik va leksik me'yorlarini boshqasiga moslashtirish orqali tushunarli va tabiiy matn yaratadi. Xato yoki noaniqliklarni kamaytiradi. Transformatsiya tarjimonning ijodiy qobiliyatini talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib, matnning semantik mazmunini saqlab, o'quvchi uchun aniq va oson tushunarli qilib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbek tili leksemalarga judayam boy til hisoblanadi va bu tilning jozibadorligini oshiradi. Leksikologiya tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz qo'llash emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi ta'limot kabi sohalar bilan chambarchas bog'liq. Leksikologiyaning asosiy muommolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir.

Transformatsiya (lot. "Transformato" – "qayta o'zgarish," "hosil bo'lish"). Transformatsiyalarnig ham turli shakllari bo'lib ular tarjima jaroyinida tarjimonga konkretlashtirish, umumlashtirish yoki tushirish kabi imkoniyatlarni beradi.

NATIJALAR

Martin Midous — o'z hayotini shaxsiy rivojlanishga bag'ishlagan yozuvchi taxallusi. U hayotida keskin o'zgarishlar kiritib, o'zini doimiy ravishda yangilab turadi. Uning tajribalari (shaxsiy sinovlar va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda) hayotini yaxshilashga yordam beradi. Agar siz o'z chegaralaringizni kengaytirishga va o'zingizning eng yaxshi versiyangiz bo'lishni o'rganishga qiziqsangiz, Martinning asarlari sizga juda yoqadi.

Ushbu maqolalada leksikologik birliklarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishda tarjima jarayonida leksik o'zgarishlar (jummalarni qo'shish, konkretlashtirish va umumlashtirish, tushirish usullaridan foydalangan holda tahlil qilinadi).

MUHOKAMA

1. Ingliz tilida: "It takes only a moment to make the wrong choice".

O'zbek tilida: "Noto'g'ri qaror qabul qilish uchun bor yo'g'i bir soniya kifoya qiladi"

O'zgarishlar:

Gap bo'laklarining joy almashishiga misollar:

1. "It takes" ingliz tilida gap boshida va "kifoya qiladi" o'zbek tilida gap o'rtasida
2. "Wrong choice" ingliz tilida gap oxirida va "Noto'g'ri qaror" o'zbek tilida gap boshida.

2. Ingliz tilida: "I daresay an obligation — to make decisions that are based on rational thinking".

O'zbek tilida: "Mantiqiy fikrlashga oid qaror qabul qilishga majburman".

O'zgarishlar:

1. Shakl almashtirish:

Ingliz tilida "decisions" so'zi ko'plikda va o'zbek tilida "qaror" so'zi birlikda.

2. Tushirib qoldirish:

Tarjima jarayonida "I" birinchi shaxs olmashi tushirib qoldirildi. O'zbek tilida

ma'lum gap turida tarjima qilindi. Ya'ni kesimdagi shaxs-sondan egani tiklash mumkin.

3.

Ingliz

tilida: "Compared to our ancestors, we have it easy"

O'zbek tilida: "Ajdodlarimizga qaraganda, bizda ro'za tutish oson kechadi.

O'zgarishlar:

So'z turkumlarining almashinuvi:

1. Ingliz tilidagi "it" olmoshi o'zbek tiliga "ro'za tutish" qo'shma fe'l shaklida o'tdi.

2. Ingliz tilidagi "easy" sifati o'zbek tiliga "oson kechadi" qo'shma fe'l shaklida o'tdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida keltirish mumkin: leksikologik birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan muommolarni o'rganib chiqib ularga yechim topish va gaplarni tahlil qilish tarjima sifatini oshiradi. Asar tarjimasi tarkibidagi gaplar va so'zlar o'zbek tiliga tarjima qilinganda gap bo'laklari tartibi o'zgargan. Gaplar tarkibidagi foydalanilgan ba'zi neologizmlar o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tilida muqobil variant yo'qligi sababli hech qanday o'zgarishsiz qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rithvik Singh, I don't love you anymore, Penguin Random House India Pvt. Limited, 2024.

2. Oxford University, Oxford Dictionary of Current English. – USA: Oxford University press, 2006.

3. Kamoljonovich S.J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PRESPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (2)1. 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

4. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.

5. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144.

6. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43

7. Kizi, A.N.O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into Uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.

8.Sirojiddinova, O. S., & Odil o'g'li, J. M. (2023). PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE TRANSLATION OF DRAMATIC WORKS. TADQIQOTLAR. UZ, 28(2), 66-69.

9.Odil o'g'li, J. M., & Mamarajabova, O. S. (2023). THE CONCEPTUAL STRUCTURE OF MODERN LINGUISTICS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 771-773.

10. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. Philological research: language, literature, education, 4(4), 73-76.

11.Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8(30). извлечено от
<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>